FALSAFA

UDK: 1(091):109:1(571.63) DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a14

O‘ZBEK FALSAFASI SHAKLLANISHIDA MARKAZIY OSIYO MUTAFAKKIRLARINING O‘RNI VA ROLI

МЕСТО И РОЛЬ СРЕДНЕАЗИАТСКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ В ФОРМИРОВАНИИ УЗБЕКСКОЙ ФИЛОСОФИИ

THE PLACE AND ROLE OF CENTRAL ASIAN THINKERS IN THE FORMATION OF UZBEK PHILOSOPHY

[1]Qambarov Abdumutal Ahadjonovich

[1]Farg‘ona davlat universiteti falsafa kafedrasi professori v.b., falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya

Мазкур мақолада ўзбек фалсафасининг шаклланиши ва унинг мазмун-моҳияти, тарихий илдизлари таҳлил қилинади. Шунингдек, ўзбек фалсафаси шаклланишига асос солган, буюк мутафаккир-олимлар, жумладан, Абу Наср Форобий, Абу Али Ибн Сино, Абу Райҳон Беруний, Алишер Навоий, Абдулла Авлоний каби алломалар асарлари жаҳон цивилизацияси олтин хазинасидан муносиб ўрин олганлиги ёритиб берилади. Шу билан бирга XX аср забардаст файласуфлари Воҳид Зоҳидов ва Иброҳим Мўминовларнинг ўзбек фалсафаси ривожланишига қўшган хиссалари баён қилинади.

Аннотация

В данной статье анализируется формирование узбекской философии, ее сущность и исторические корни. Будет также разъяснено, что достойное место получили труды великих мыслителей-ученых, в том числе Абу Насра Фароби, Абу Али Ибн Сины, Абу Райхана Беруни, Алишера Навои, Абдуллы Авлони, заложивших основы формирования узбекской философии. в золотом сокровище мировой цивилизации. Вместе с тем описывается вклад выдающихся философов XX века Вахида Зохидова и Ибрагима Моминова в развитие узбекской философии.

Abstract

This article analyzes the formation of Uzbek philosophy, its essence and historical roots. It will also be explained that the works of great thinkers and scientists, including Abu Nasr Farobi, Abu Ali Ibn Sina, Abu Rayhan Beruni, Alisher Navoi, Abdullah Avloni, who laid the foundations for the formation of Uzbek philosophy, received worthy place. in the golden treasure of world civilization. At the same time, the contribution of outstanding philosophers of the twentieth century Vahid Zohidov and Ibrahim Mominov to the development of Uzbek philosophy is described.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek falsafasi, Zardushtiylik, avesto, ezgu fikr, ezgu (so‘z) kalom, ezgu amal, hind va xitoy, yunon-rim, ingliz, nemis, fransuz va rus falsafasi, milliy zamin, mehnatsevarlik, insonparvarlik, milatparvarlik, millatlararo do‘stlik, ezgulik.*

Ключевые слова: *Узбекская философия, зороастризм, Авеста, добрая мысль, доброе (слово) слово, доброе дело, индийская и китайская, греко-римская, английская, немецкая, французская и русская философия, национальная земля, трудолюбие, гуманизм, национализм, интернациональная дружба, добро.*

Key words: *Uzbek philosophy, Zoroastrianism, Avesta, good thought, good word, good deed, Indian and Chinese, Greco-Roman, English, German, French and Russian philosophy, national land, hard work, humanism, nationalism, international friendship, goodness.*

KIRISH

Bugungi kunda hayotning barcha sohalarida yangilanishlar va ulkan o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu esa inson dunyoqarashining sezilarli darajada o‘sishiga turtki bermoqda. Ayniqsa, bu ma’naviy yuksalishda barcha fanlar qatori ijtimoiy fanlar, jumladan, falsafani yangilash va uni yanada rivojlantirish mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. “Bunda bevosita xalqimizga nisbat beriladigan “O‘zbek falsafasi” atamasi ham keyingi yillarda baralla qo‘llanila boshlandi”[1,3].

O‘zbek falsafasini rivojlantirish mamlakatimiz taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Uning dolzarb vazifalari orasida O‘zbekiston mustaqilligi, istiqlol yillarining tajribasi, o‘tgan davrda yurtimizda amalga oshirilgan tub o‘zgarishlar, islohotlar jarayonini falsafiy jihatdan o‘rganish, tahlil qilish va shu asosda amaliyot uchun zarur xulosa va takliflar ishlab chiqish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, keyingi yillarda xalqimiz tafakkuridagi yangilanishlar, ma’naviy merosimizning tiklanishi, milliy o‘zlikni anglash, turli sohalardagi o‘zgarishlarni falsafiy izohlash masalalari ham o‘zbek falsafasining dolzarb vazifalar qatoriga kiradi. Bular orasida mustaqillik, unga asoslangan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, huquqiy jarayonlarga falsafiy yondashuv bilan bog‘liq vazifalar alohida o‘rin tutadi.

FALSAFA

Sir emas uzoq yillar davomida yoshlarga xitoy va hind falsafasi, qadimgi yunon-rim falsafasi, Bekon, Gobbs va Lok nomlari bilan blg‘langan ingliz falsafasi, Didro, Gelvetsiy, Golbax, Russo va boshqalar nomlari bilan bog‘liq fransuz falsafasi, Kant, Gegel, Feyyerbax va o‘nlab boshqa ismlarda o‘zini namoyon qilgan olmon falsafasi haqida, Lomonosov, Radishchev, Chernishevskiy, Gersen va boshqalar orqali johon falsafasida o‘z o‘rnini egallagan Rus falsafasi haqida so‘zlab berilgan[2,2].

Jahon xalqlarining falsafiy boyligi va merosi haqida so‘zlanganda birinchi navbatda yuqorida sanab o‘tilgan falsafa maktablari va faylaso‘flari tushunilgan. Bundan ma’lum bo‘ladiki, jahon falsafasi milliy falsafiy maktablardan tashkil topgan. Ya’ni, boshqacha qilib aytganda, umuman, mavhum falsafa yo‘q. Demak, falsafa milliy asosga ega emas, “milliy zamin” tushunchasini falsafaga ishlatish mumkin emas deyish tarix haqiqatiga to‘g‘ri kelmaydi. Huddi insoniyat madaniyati milliy madaniyatlar erishgan eng yirik yutuqlarning majmuasi sifatida namoyon bo‘lganidek, jahon falsafasi ham shu tamoyilga bo‘ysunadi. Bunday qiyoslashni shu boisdan ham o‘rinli deyish mumkinki, falsafaning o‘zi insoniyat madaniyatining muhim sohalaridan biri deb tan olinadi.

Insoniyat tarixi halqning milliy davlatchiligi barqaror bo‘lgan va ma’naviy salohiyati yuksaklikka ko‘tarilganda, ko‘plab sohalar qatori, uning falsafasi ham jadal rivojlanadi. Shu ma’noda, “O‘zbek falsafasi” tushunchasining mazmun-mohiyati, namoyon bo‘lish xususiyatlari va takomil bosqichlarini xalqimiz tarixi, milliy davlatchilik an’analari, ma’naviy qadriyatlari, ruhiyati va tafakkur tarzidan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu ma’noda “O‘zbek falsafasi” tushunchasi xalqimizning falsafiy tafakkuri, ongi va dunyoqarashining rivojlanish bosqichlari, tushuncha va kategoriyalari, ma’naviy tamoyillari va o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI

Yurtimizda falsafiy tafakkur rivojlanishida tasavvuf ilmining o‘rni katta bo‘lgan. Tasavvuf garchi diniy-falsafiy ta’limot bo‘lsa-da, uning g‘oyalari “soyasi”da tabiiy-ilmiy bilimlar ham rivojlangan, bu o‘sha davrning xususiyati bo‘lib, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, At-Termiziy, Muso Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Mirzo Ulug‘bek, Bedil va boshqa buyuk mutafakkirlar uning (diniy-falsafiy ta’limotning A.Q.) muayyan ta’siri ostida ham ijod qilganlar va o‘zlarining falsafiy, tabiiy-ilmiy qarashlarini asoslaganlar. Zero, o‘rta asrlar g‘oyaviy-falsafiy hayotida muhim o‘rin tutgan tasavvuf mutloq borliqning (Ollohning) mavjudligini va olamni birligini asos qilib olib, bilim muammolari, bilimning imkoniyatlari va chegaralari, uning tatbiq etishning uslublari to‘g‘risida yaxlit qarashlar tizimini ilgari suradi.

Ulug‘ ajdodlarimiz Imom Buxoriy, G‘ijdivoniy, Bohouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, So‘fi Ollohyor, Boboraxim Mashrab, Alisher Navoiy kabi buyuk zodlarning bizga qoldirgan bebaho ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon madaniyati xazinasidan munosib o‘rin olib, insoniyatni ezgulik sari yetaklab, har tamonlama barkamol insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qilmoqda.

Yuqoridagi xulosalarga tayangan holda o‘zbek falsafasi bormi va bo‘lishi mumkinmi degan savolga javob topishga harakat qilamiz. XX asrning 60-yillaridan to mustaqillikgacha falsafa sahnasiga chiqqan yuzdan ortiq falsafa fanlari doktorlari istibdod markazi belgilab bergan dasturlar atrofida fikr yuritib, shu ilmiy qafas ichida mulohaza olib bordilar, chunki milliy falsafa to‘g‘risida gap ochish mumkin emas edi. Bu hammamizga ma’lumdir. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, hozir ham O‘zbekiston falsafasiga xizmat qilayotgan olimlarning aksariyati istibdod davri falsafasining ko‘p yillar davomida, aytish mumkinki,targ‘ibotchisi va tashviqotchisi bo‘lganlar.

Bugungi kunda milliy zaminimizda “Avesto”dan boshlanib, Zardusht tomonidan bir butun tizim holiga keltirilib, Moniy va Mazdaklar tomonidan davom ettirilgan, Forobiy, Ibn Sino va Beruniy asarlarida o‘zining yuksak cho‘qqilaridan biriga ko‘tarilgan, Alisher Navoiy, Boboraxim Mashrab, Axmad Donishlar orqali Behbudiy va Fitratlargacha yetib kelgan o‘zbek milliy falsafasining bir butun silsilasini yuzaga keltirish zarur. Bu – o‘zbek millati oldida va umuman, jahon falsafasi oldidagi muqaddas burchdir.

NATIJALAR

Har qanday xalqning biron-bir tarixiy davrdagi ma’naviy qiyofasiga uning falsafasiga xos tushuncha va tamoyillar tizimi mos kelishi zarurligi bu sohaning zamon va ijtimoiy vaqt bilan bog‘liq asosiy qonunidir. O‘zbek falsafasi ham, xalqimiz hayoti va ma’naviyatining o‘ziga xos in’ikosi va tarkibiy qismi sifatida, u bilan birga shakllangan va tarixiy jarayonlardan o‘tib, toblanib kelmoqda.

Ma’lumki, ma’naviy-falsafiy va ma’naviy-axloqiy qarashlarning vujudga kelishi insoniyat taraqqiyotining eng qadimgi davrlariga, tarixiy yodgorliklarimiz “Avesto” paydo bo‘lgan davrlarga borib taqaladi. Unda ilgari surilgan ezgu fikr, ezgu (so‘z) kalom, ezgu amal kabi tamoyillar insonning tabiatga, jamiyatga, o‘zaro bir-biriga munosabatining falsafiy-axloqiy mohiyatini anglatadi. Aynan “Avesto”da ilgari surilgan insoniylik g‘oyalarining bevosita ta’sirida ona zaminimizda misli yo‘q faylasuf donishmandlar, shu bilan bir vaqtda dunyoni hayratga solgan ilmiy kashfiyotlar, falsafiy-ma’naviy qarashlar vujudga kelgan bo‘lsa ajab emas. “Avesto” g‘oyalari X-XII asrlarga kelganda yangidan tiklandi va musulmon islom falsafasi bilan uyg‘unlashib, O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining dunyoqarashlarida o‘z ifodasini topdi.

“O‘zbek milliy falsafa maktabi” haqida so‘z yuritganda, u O‘rta Osiyo xalqlari falsafasining tarkibiy qismi ekanligi diqqat doirasidan chetda qolmasligi zarur. Jumladan milliy falsafaning mohiyatini anglashda uning tadrijiy taraqqiyotini o‘rganish, davrlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek falsafasini tadrijiy taraqqiyotini o‘rganishda uni ikki davrga: “Ilk O‘rta asrlar falsafasi” va “Temuriylar davri falsafasi”ga bo‘lish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbek falsafasi bizning buyuk bobolarimiz asarlari va yutuqlarining tarixiy butun dunyoviy ahamiyatini hisobga olgan holda, ayni vaqtda o‘z milliy ongi va g‘ururini ular amalga oshirgan ishlar orgiga yashirmagan holda, shuni ta’kidlay oladiki, umuminsoniy qadriyatlar ustivorligi hech bir alohida millatga, hech bir alohida jahon mintaqsiga, Sharqqa ham G‘arbga ham, Shimol va Janubga ham qarashli hisoblanmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarni yaratishda Shimol ham, Janub ham, Sharqu G‘arb ham, ya’ni u yoki bu darajada dunyodagi barcha xalqlar va millatlar, shu jumladan o‘zbeklar ham ishtirok etganlar.

MUHOKAMA

O‘zbek falsafa maktabining shakllanishiga ulkan hissa qo‘shgan va uning muhim muammolari hamda asosiy yo‘nalishlarini belgilab bergan, Sharqda aristotelizm oqimiga asos solgan yirik mutafakkir, qomusiy olim, buyuk faylasuf Abu Nasr Forobiy (870-950) ko‘plab fanlarni ilmiy kashfiyotlar bilan boyitdi, turli mamlakatlar olimlarining falsafiy qarashlarini rivojlantirdi va 160 dan ortiq asar yozdi. Ulardan eng mashhurlari “Fusus ul-hakim” (“Hikmat javhari”), “Mohiyat xususida so‘z”, “Fanlarning paydo bo‘lishi haqida kitob”, “Tafakkur mohiyati” va boshqa asarlar hisoblanadi. Forobiy asarlarining asosiy qismi ko‘plab Yevropa va Sharq tillariga tarjima qilingan va hozirgi kunga qadar chuqur tadqiqotlar mavzusi bo‘lib kelmoqda”[3,39]. Ayniqsa, Forobiyning aql falsafasi haqidagi fikrlari bugun qanchalik muhim va g‘oyat dolzarb ahamiyatga ega ekanligi, uning mazmun-mohiyatidan kelib chiqadi: Olamda eng avval inson aqlli yaralgan. Aql qalb posbonidir. Aql yana uch qo‘shiqchi: til, ko‘z, quloqning ustidan ham posbonlik qiluvchidir. Zero, ezgulik va yovuzlik aytgan ana shu uch a’zo orqali qalbga kirib boradi[4,190], - deydi mutafakkir.

Forobiyning ilmiy bilimlar tuzilishi, uning tasnifi haqidagi ta’limoti tabiiy-ilmiy va falsafiy tafakkur tarixida katta rol o‘ynadiki, u avvalo borliq xususiyatlarining tahlilidan va ularning fanda aks etishidan kelib chiqadi, inson bilimlarining keng imkoniyatlarini ochib beradi, avvalo tabiatni, insondan tashqarida bo‘lgan reallikni o‘rganishga, shuningdek, insongagina xos bo‘lgan bilishning muhim vositalari – tafakkur va nutqni, til va mantiqni o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, fanga zid tasavvurlardan farqlanish vazifasini qo‘yadi.

Abu Nasr Forobiy bilimlarni amaliy (kasb, hunar) va nazariy (fan) qismlarga bo‘ladi. Uning fikricha, falsafa nazariy bilimlar doirasiga kirib, borliqning mohiyati haqida butun mavjud narsalarning mazmuni haqida mukammal va to‘liq ma’lumot beradigan fan bo‘lib, bilimlarning boshqa turlaridan, xususan, amaliy bilimlardan farq qiladi va o‘zining qonun va qoidalariga hamda metodologiyasiga egadir.

Ma’lumki, Forobiy o‘rta asr sharoitida barcha ma’lum bo‘lgan fanlarning birinchi eng mukammal tasnifini yaratadi. Mutafakkirning lotin tiliga tarjima qilingan “Fanlarning paydo bo‘lishi haqidagi kitob” va arab tilida yozilgan “Aqso al ulum” kabi ikkita katta risolalarida fanlarning kelib chiqishi va tasnifi haqidagi fikrlari o‘z aksini topgan. Forobiyning falsafa va axloq, diniy va dunyoviy bilimlar o‘rtasidagi munosabatni g‘oyat adolatli hal etganligi bugun kunda ham ahamiyatlidir. “Muallimussoniy” ekstremist johil so‘fiylarning qarashlarini u “G‘ayri fozila shaharlar” aholisi fikrlariga qo‘shgan[5,72].

Forobiy jamiyatning kelib chiqishi ustida mulohaza yuritar ekan, zo‘ravonlik va majburlash ta’limotini inkor etib, u inson jamoasining kelib chiqishi asosida tabiiy ehtiyoj yotganligi haqidagi nazariyani ilgari suradi. Uning fikricha, tabiiy ehtiyoj kishilarni bir-birliri bilan birlashishga, o‘zaro yordamga olib keladi. Ana shu o‘zaro yordam tufayli ehtiyoj qondiriladi. Kishilar o‘rtasidagi o‘zaro

yordam inson jamoasini keltirib chiqaradi. Forobiy dinga, islomning asosiy mabai bo‘lgan Qur’onga nihoyatga katta hurmat va ishonch bilan qaraydi. Uni (Qur’onni A.Q.) axloq-odobning asosi deb bildi. Uning dunyoqarashi IX-X asrlarda erishilgan madaniy yutuqlarning yakuni, shuningdek, o‘zbek falsafasining asosini tashkil etadi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu bilan birga uning g‘oyalari Jahon falsafasini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘zbek falsafani rivojlanishiga o‘zining munosib xissasini qo‘shgan “Abu Ali ibn Sino umri davomida 450 dan ortiq asarlar yaratgan bo‘lib, shulardan 190 ga yaqini falsafa, psixologiya, axloqshunoslik, mantiq, kimyo, fizika, astranomiya, matematika, musiqa, adabiyot, tilshunoslik va ijtimoiy-siyosiy sohalarga tegishlidir. Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Frensis Bekon va boshqa ko‘plab olimlar avlodi uning asarlarini o‘qib, ulardan ilmiy, ma’naviy ozuqa olib, hayratga tushganlar”[3,39].

Buyuk olim va mutafakkir Abu Ali ibn Sino (980-1037) dastlab tibbiyot ilmiga asos solgani, uni eng yuksak cho‘qqilarga olib chiqqani bilan olamga tanilgan bo‘lsa, o‘z davri uchun ilg‘or tabiiy-ilmiy va falsafiy g‘oyalari bilan ham shunchalik mavqega ega bo‘lgan. Uning nomi dunyo fani va madaniyati tarixiga zarhal harflar bilan bitilgan. Insoniyatni o‘zining chuqur falsafiy-mantiqiy mazmuni bilan olimlarni taajjub va hayratga solgan, “Hayyi ibn Yaxzon” asarida olam va inson haqida, ruh va Olloh yangi falsafiy novella, rivoyat, poema yaratdiki, kelgusida A.Dats, Shota Rustavelining ijodi uchun, Braytel, Bosxlarning tasviriy san’ati uchun bitmas-tuganmas ilhom va ijod bag‘ishladi[6,65]. Uning ilmiy-falsafiy va madaniy taraqqiyotiga oid ko‘plab asarlari jamiyat ma’naviy hayotining yuksalishida juda katta ta’sir ko‘rsatdi. O‘zining aql darajasi, bilimining ko‘p tomonliligini rus faylasufi B.E.Bixovskiy ta’kidlaganidek, Uyg‘onish davri tafakkuri daholaridan biri sifatida e’tirof etilgan.

“... noyob fazilatlar sohibi bo‘lmish mashhur alloma Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari necha asrlar davomida Yevropaning eng nufuzli oliy o‘quv yurtlarida asosiy tibbiyot darsliklaridan biri sifatida o‘qitib kelingani, dunyo miqyosida “Meditsina”, “Sog‘lom turmush tarzi” degan tushunchalarning fundamental asosi bo‘lib xizmat qilgani, albatta, chuqur hayotiy va ilmiy zaminga ega. Aniqroq qilib aytganda, bu benazir allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya’ni, ma’naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta’sir o‘tkazdi, deb aytishga barcha asoslar bor”[7,43].

“Ibn Sino va Beruniyning bizgacha yetib kelgan Aristotelning “Koinot haqida kitob” asari tahliliga bag‘ishlangan yozishmalari buyuk allomalarimiz ilmiy muloqot olib borish, antik davr falsafiy qarashlarini chuqur anglash va ularni rivojlantirish borasida naqadar yuksak darajaga ko‘tarilganining mumtoz namunasidir”[3,39]. Ular hozirgi zamonaviy ilm-fan sivilizatsiya rivoji uchun, jahon xalqlarining tinchlik va farovon hayoti uchun intilishlarida falsafiy, ma’naviy-axloqiy ta’lim-tarbiya maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Abu Rayhon Beruniy (974-1048) o‘rta asr va o‘zbek falsafa fanining eng o‘tkir, eng ilg‘or namoyondalaridan biridir. Bu tengi yo‘q olim juda dadil, o‘tkir fikr egasi bo‘lib, Sharqda fan taraqqiyoti (o‘zbek falsafasi)ning yangi davri bevosita Beruniydan boshlanadi, deb bejiz atilmagan. U o‘zining aniq fanlar sohasida qilgan katta xizmatlari va kashfiyotlari bilan o‘z davrdan ancha ilgarilab ketadi va hozirgi zamon ilm-fani rivoji uchun ham benazir va bebaho ilmiy, ma’naviy boylik qoldiradi.

Beruniy matematika, astronomiya, meditsina, geodeziya, minerologiya, farmakologiya, geografiya, tarix, til kabi fanlarni rivojlantirish orqali jahon ilm-fani va madaniyati rivojlanishiga juda katta hissa qo‘shdi va o‘z davrining buyuk olimi maqomini oldi, jahon fani va madaniyati tarixidan munosib o‘rin egalladi. Yirik sharqshunos olimi Karl Eduard Zaxau ma’joziy tarzda shunday deydi: “Dunyoda tog‘lar ko‘p, lekin ular orasida shunchalik yuksak bir cho‘qqi borki, bu cho‘qqini insoniyat hech qachon zabt etolmaydi. Bu – Beruniydir”[8,18].

Beruniy o‘ta ziddiyatli va og‘ir ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda yashaganiga qaramay ilm-fan sohasida ulkan meros qoldirdi. U o‘z umri davomida 152 asar yozgan bo‘lib, o‘zining ilmiy-falsafiy qarashlarini “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Ma’sud qonuni”, “Hindiston”, “Geodeziya”, “Minerologiya” asarida bayon qilingan. Olimning minerologik merosini o‘rganuvchi rus olimlaridan biri G.T.Lemmleyn uning minerologiyada qo‘llagan uslubi to‘g‘risida to‘xtalib: “Mantiqiy tuzilishlarni kuzatish va tajribada aniqlashni talab etuvchi ilmiy uslub ham hozirgi zamon fanining qoidalariga javob beruvchi usul”[9,317] dir, - deydi.

Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari O‘rta Osiyo xalqlari va fors, yunon, yaxudiy, xristian, arab kabi bir qancha xalqlarning yilnoma va urf-odati, din, e’tiqodlari, fani va tarixiga oid qimmatli ma’lumotlarni beradi. O‘rta Osiyo, jumladan, Xorazm xalqlari tarixiga oid ma’lumotlar ayniqsa qimmatliligi bilan muhimdir. Sharq xalqlari tarixiga oid bu qimmatli asarda ilgari surilgan fikrlar hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Beruniyning tarixga oid asarlarini akademik V.R.Rozen, - “Sharq va G‘arbning qadimgi va o‘rta asrdagi butun ilmiy adabiyotida bunga teng keladigan asar yo‘q”, - deb hisoblagan.

Beruniyning yirik asari “Tahqiq moli-l-hind” bo‘lib, (Hindiston haqidagi tahqiqlar) uning bu o‘lmas kitobi hindlarning urf-odati, fani, tarixi, o‘sha davrdagi siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayoti to‘g‘risida boy ma’lumotlar beradi[10,94-95]. Bu asar sakson bobdan iborat bo‘lib, hindlarning qadim zamondan tortib, to Beruniy yashagan davrgacha bo‘lgan e’tiqodlari, modda, tangri, olam, inson, jon kabilarga bo‘lgan qarashlari, ularning dinlari va kelib chiqish tarixi, payg‘ambarlari, aniq fan sohadagi ilmlari, o‘lka va shaharlarning chegaralari va ularga oid bo‘lgan afsona va tarixlar, yozuv va tillari, she’r va vaznlar kabi turli-tuman sohalarni o‘z ichiga olgan. Shuningdek, olim (Beruniy – A.Q.) fanni ham, adabiyotni ham borliqning inson tomonidan o‘zlashtirilishi, tabiat va jamiyat xossalari, qonun-qoidalarini tafakkurda shakllangan ko‘rinishlaridir, - deb tushunadi. Shuning uchun, u fan bilan badiiy ijod orasida yaqinlik ko‘radi, - deb yozadi atoqli olim Najmiddin Komilov[11,38].

“Beruniy dunyo ilm-fanida birinchilardan bo‘lib dengizlar nazariyasi va Yerning sharsimon globusini yaratish yuzasidan o‘ziga xos yangi g‘oyalarni taklif etdi. Yer radiusini hisoblab chiqdi, vakuum, ya’ni bo‘shliq holatini izohlab berdi, Kolumb sayohatidan 450 yil oldin Tinch va Atlantika okeanlari ortida qit’a mavjudligi haqidagi qarashni ilgari surdi”[3,39].

Sharqshunos akademik I.Y.Krachkovskiyning e’tirof etishicha, Beruniy davrida Yevropa ilm-fan va madaniyat taraqqiyotida Musulmon Sharqidan bir necha bor ortda qolgan edi, shuning uchun ham O‘rta asrlar Sharq allomalarining ilmiy merosi zamonaviy sivilizatsiya rivojiga katta ta’siri borligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalqi ma’naviy dunyosining shakllanishiga g‘oyat kuchli va samarali xizmat ko‘rsatgan ulug‘ zotlardan yana biri Alisher Navoiy (1441-1501)dir. Uning falsafiy va ma’naviy merosi hozirgi zamonimizning ma’naviy-axloqiy ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan falsafiy fikrlarni qamrab oladi. Shoirning XV asrdan bizgacha yetib kelgan olam va uning mohiyati, inson va inson hayoti, xalq va xalqparvarlik, komillik va komil inson, muhabbat va go‘zallik to‘g‘risidagi o‘zbekona falsafasi insoniyat ongi va tafakkurida doimo yashab kelmoqda.

Navoiy inson qalbining quvonchi va qayg‘usini, ezgulik va hayot mazmunini teran ifoda etgan, bunday allomalar jahon tarixida kam topiladi. Navoiy xalqlar birdamligi va do‘stligini kuylovchi va qadrlovchi mutafakkir. Uning barcha dostonlari va devonlarida turli xalqlarga mansub qahramonlarning obrazlari xalqaro do‘stlik va tinchlikni ifodalaydi. Buyuk alloma xalqimizning ongi va tafakkuri, ilm-fan va madaniyati tarixida o‘chmas iz qoldirgan shaxs, shuningdek, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g‘ururi, sha’nu-sharafini dunyoga tarannum qilgan yetuk mutafakkirdir.

O‘zbek shoiri, adibi va tilshunos olim, mutafakkir “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyat tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi, sha’nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas so‘z san’atkoridir. Ta’bir joiz bo‘lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so‘zlovchi biron-bir inson yo‘qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e’tiqod bilan qaramasa. Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”[7,47].

Alisher Navoiy ulug‘ ma’rifaparvar shoir bo‘lib, u insonning aql-zakovatini yuksak baholaydi, uni ilm-fan jamiyat taraqqiyoti va xalqning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda, hayot illatlarini bartaraf etishga xizmat qiluvchi qudratli vosita deb hisoblaydi. Navoiy nafaqat buyuk shoir, ma’rifatparvar shaxs, ayni bir vaqtda u yirik davlat arbobki, bugungi kunda ham uning olib borgan davlatni boshqarishdagi adolatli siyosati behad ahamiyatlidir. Navoiy inson hayotidagi barcha qiyin muammolarni ilm yo‘li bilan hal etishga chaqiradi va bu chaqiriq uchun olimu donishlar pillapoyasining eng yuqori cho‘qqisiga olib chiqdi. E’tibor berilsa, mutafakkir har bir asarida insonni ulug‘lab, uni insoniylik fazilatlarini egallashga chaqiradi. Shuning uchun ham uning ma’naviy va falsafiy merosining asosini “Odami ersang, demagil odami, oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami” tashkil

etadi. O‘rta asrlarning XV asrlarida yangragan bu so‘zlar hozir ham hayotiy pand-nasihat sifatida odamlar qalbidan joy olgan. Bularning barchasi o‘zbek milliy falsafasining asosini tashkil qiladi.

O‘zbek falsafasi asoschilarining keyingi avlodlaridan biri Abdulla Avloniy (1878-1934)dir. Uning adabiy va ilmiy merosi nihoyatda boy bo‘lib, falsafa, axloqshunoslik, pedagogika va boshqa sohalarni qamrab oladi. U “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Tarixi anbiyo”, “Turkiy guliston yohud axloq”, “Maktab gulistoni” kabi asarlarida ta’lim-tarbiya borasidagi o‘zining falsafiy fikrlarini bayon etgan.

1913-yilda bosmadan chiqqan “Turkiy guliston yohud axloq” asarida aql va ilmni ma’naviy-axloqiy olamning adib tomonidan ehtiros bilan ulug‘lanishi uning ma’rifatchilik g‘oyalarining mazmunidan kelib chiqadi. Muallifning fikricha, aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir. Ushbu risolada yozuvchi asosiy e’tiborni aql, ilm, ziyraklik, vijdon, vatan tuyg‘usi, til, haqiqat, hayo, iffat, muhabbat, munislik kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishga, shuningdek, jaholat, g‘azab, dangasalik, yalqovlik, g‘iybat, hasad kabi illatlardan xalos bo‘lishga qaratadi. Mutafakkir bu fazilatlarni shunchaki ko‘rsatib o‘tmaydi, balki aniq hayotiy, amaliy ahamiyati ustida ham to‘xtalib o‘tadi. Uni (risolani A.Q.) insonni kamolotga yetkazishda asosiy omil sifatida e’tirof etadi, shuningdek, sanab o‘tilgan illatlar esa insonni ijtimoiy taraqqiyotda izdan chiqishiga sabab bo‘ladigan omil deb aniq fikr bildiradi.

Abdulla Avloniyning inqilobigacha bo‘lgan poetik merosi, asosan “Adabiyot” nomli olti qismdan iborat she’riy to‘plamlarida jamlangan. Ularning har biri 1909-1917 yillar oralig‘ida alohida-alohida bir necha marotaba nashr qilingan. Faylasuf shoirning bu davrda yozilgan barcha she’rlari milliy-ijtimoiy xarakterga ega ekanligining o‘zi o‘zbek milliy falsafasi asosini tashkil etadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mutafakkir olim o‘zining barcha asarlarida o‘zbek falsafasining asosini tashkil etadigan ta’lim-tarbiya, ya’ni barkamol shaxs tomonidan o‘zlashtirishi zarur bo‘lgan quyidagi: aqliy kamolot, axloqiy kamolot, jismoniy yetuklik va go‘zallikni his etish kabi sifatlarni yoritib beradi.

XULOSA

Xullas, bugungi kunda o‘zbek falsafasiga e’tiborni qaratish shundan dalolat beradiki, u bizning davrimizgacha uzluksiz ravishda madaniyat, inson tafakkuri va aql-zakovatining yuksalishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Lekin mustabid tuzum davrida ijtimoiy-falsafiy fikr tarixiga bir tomonlama, sinfiy nuqtai nazardan yondashildi, faqat kommunistik partiya mafkurasi talablariga to‘g‘ri keladigan g‘oya va fikrlarga e’tibor berildi.

Lekin yuqoridan bo‘lgan tazyiqlarga qaramay, madaniy-ma’naviy va ijtimoiy-falsafiy merosimizni o‘rganish, tadqiq qilish tamoman to‘xtab qolmadi. O‘tgan asrning 60-70-yillarda I.M.Mo‘minov, V.Zohidovlarning ijtimoiy-falsafiy fikr tarixi bo‘yicha tadqiqotlari katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ular Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ali Qushchi, Mirzo Bedil va boshqalarning falsafiy dunyoqarashini tadqiq qildilar.

O‘zbekistonda birinchi bo‘lib, 1946 yilda Vohid Zohidov, ikkinchi bo‘lib 1950 yilda Ibroxim Mo‘minov falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olishgan bo‘lsalar-da, falsafa fanining ilk qaldirg‘ochlarining fikrlari ham cheklab qo‘yilgan edi. Shuning uchun ular o‘zbek falsafasi bormi yoki yo‘qmi degan savolni ochiq qo‘yish imkoniyatidan mahrum edilar.

Vohid Zohidov va Ibrohim Mo‘minov shaxslaridan boshlangan falsafani mustabid tuzum o‘ziga moslashtirgan va ko‘p jihatdan o‘z milliy ildizlaridan majburan uzilgan falsafa edi.

Milliy falsafa haqida masalaning bunday qo‘yilishining xech qanday g‘ayriilmiy yoki g‘ayriijtimoiy tomoni yo‘q. Chunki, milliy falsafa “...yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashda, ularda milliy g‘urur, milliy ong va o‘z-o‘zini anglash, vatanparvarlik, tuyg‘ularini shakllantirishni taqozo etadi”[12,119].

Tarixdan ma’lumki O‘rta Osiyo – insoniyatning sharqdagi ilk madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan. Bu esa, Xitoy yoki Hindiston kabi qadimiy davrlardan o‘zbeklarning ham o‘z falsafiy maktablari, yo‘nalishlari va ta’limotlari bo‘lganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda ularni izchillik bilan va sabr-toqat bilan o‘rganib, bir tizimga keltirish va shu asosda jahon falsafasiga “O‘zbek milliy falsafasi” degan tushunchani kiritish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Nazarov Q., va boshqalar. O‘zbek falsafasi tarixi. Muharrir nashriyoti. 3-jild. –B. 3
2. Xonazarov Q. O‘zbek falsafasi bormi? // Muloqot jurnali. 3-son. 2001. –B. 2
3. Farg‘ona haqiqati. Viloyat gazetasi. № 39 (22901). 17-may 2014 yil

4. Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf. –Toshkent: 2009. –B. 190
5. Xotamiy Sayyid Muhammad. Islom tafakkuri tarixidan. –Toshkent: Minxosh. 2003. –B. 72
6. A.Saldadze. Ibn Sina – Avitsenna. –Toshkent: Izd. Im. Gafur Gulyama. 1983.
7. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat. 2008. –B. 43, 47
8. I.A.Karimovning Halqaro koferensiyada so'zlagan nutqini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma. –Toshkent: 2014. –B.18
9. Lemmleyn G.T. Minerologicheskiye svedeniya, soobshayemiye traktate Beruni. V.kn. Sobraniye svedeniy dlya poznaniya drogotsennostey (Minirologiya). Moskva: 1963 –B. 317
10. Ma'naviyat yulduzlari. –Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 1999. –B. 94-95
11. Komilov N. Tafakkur karvonlari. –Toshkent: Ma'naviyat. 1999. –B. 38
12. Qambarov A.A. Najmetdinova M.M. Yoshlarning barkamol bo'lib shakllanishlarida ijtimoiy siyosat. QarDu xabarlari ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. 2022. 4/2 (54) –B. 119
13. Qambarov A.A. Ilmiy va diniy qadriyatlar transformatsiyasi orqali ma'rifatli avlodni tarbiyalash zaruriyati. Jamiyat va innovatsiyalar Journal home page: https://inscience. uz/ index.php/socinov/index. 2181-1415/© 2022 in Science LLC.